



## AXBOROT ASRIDA QASHSHOQLIK MUAMMOSI – TANQIDIY VA TAHLILIIY YONDASHUVLAR

**Karimov Sherzod**

Mustaqil Tadqiqotchi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

**Annotatsiya.** Maqolada Axborot asrida ishsizlik va Qashshoqlik muammosi, kelib chiqish sabablari, uni oldini olishda tarixda qilingan va kelajakda qilinishi belgilangan ishlar, rejalar haqida yoritilgan. Dunyoda kuzatilayotgan qashshoqlikmuammosi O'zbekistonga ta'siri va oldini olish choralari to'g'risida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Qashshoqlik, ishsizlik, BMT, hamkorlik, rejalar, qonunchilik, muammjlarva yechim.

**Аннотация:** В статье описывается проблема безработицы и бедности в век информации, ее причины, действия и планы по ее предотвращению в прошлом и планируемые в будущем. Приведены мнения о влиянии наблюдаемой в мире проблемы бедности на Узбекистан и профилактических мерах.

**Ключевые слова:** Бедность, безработицы, ООН, сотрудничество, планы, законодательство, проблемы и решения.

**Abstract:** The article describes the problem of unemployment and poverty in the Information Age, its causes, the actions and plans to prevent it in the past and planned in the future. Opinions are given about the impact of the poverty problem observed in the world on Uzbekistan and preventive measures.

**Keywords:** Poverty, unemployment, UN, cooperation, plans, legislation, problems and solutions.

Har yili 17-oktyabrda dunyoda qashshoqlikka barham berish xalqaro kuni nishonlanadi. Tarixga nazar tashlasak, ushbu sana tarixi 1987-yildan boshlanishiga guvoh bo‘lamiz. 1948-yil 17-oktyabr kuni Inson huquqi umumjahon deklaratsiyasi imzolangan Parijdagi Trokadero maydonida yuz mingdan ziyod odam yig‘ilib, to‘planganlar qashshoqlik inson huquqi buzilishi ekanini ta’kidlab, holatni bartaraf qilish uchun birgalikda harakat qilish zarurligini tasdiqladilar. Ularning so‘zlari o‘sha kuni ochilgan yodgorlik toshiga ham bitilgan edi. Qashshoqlik birgina davlat yoki bir mintaqa muammosi emasligi barchaga ayon. Shu bois qashshoqlikka qarshi kurash ramziga aylangan mazkur toshning nusxalari, keyinchalik, butun dunyo bo‘ylab tarqalgan. Shu joy esa qashshoqlikka qarshi kurash kunini nishonlayotgan odamlar to‘planadigan maskanga aylangan. Shunday toshlardan biri BMT qarorgohidagi bog‘da ham bor, xarsang atrofida har yili tashkilotning Nyu-Yorkdagi Kotibiyati tomonidan tantanali marosim tashkil etiladi.

Shunday qilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 22-dekabrda rezolyutsiyasida 17-oktyabr – Xalqaro qashshoqlikka barham berish kuni, deb e‘lon qilindi va shundan buyon barcha davlatlar mazkur sanani nishonlab kelmoqda. 2015-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo barcha mamlakatlar 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishning 17 maqsadini qabul qilgan, hujjatning asosiy maqsadi, shubhasiz, qashshoqlikning barcha ko‘rinishlarini keng miqyosda yo‘q qilishdir. 2022-yil Xalqaro qashshoqlikka barham berish kunining 30 yilligi nishonlanadi. Bu yilgi tadbirning mavzusi “Amalda barchaning qadr-qimmatini ta‘minlash. Sayyoramizda tinchlik, ijtimoiy adolat o‘rnatish yo‘lida zimmamizga olinadigan majburiyat”, deb nomlandi. Inson qadr-qimmatini nafaqat asosiy huquq, balki boshqa barcha huquqlar asosini tashkil qiladi. Binobarin, qadr-qimmat mavhum tushuncha emas, hammamizga tegishli jarayon.

Ehtimol, avvallari bu masalaga boshqacharoq qaralgandir, ammo bugungi kunda surunkali qashshoqlikda yashovchi judi ko‘p odam o‘z qadr-qimmatini inkor etilayotgani, hurmat qilinmayotgani bilan bog‘liq muammoni yurak-yuragidan his qilib turishi rost. Zero, “qashshoqlik” atamasi ko‘pincha o‘ta kambag‘allik sinonimi sifatida qabul qilinadi.

Qashshoqlik chearasi qanday belgilanadi? Qay sharoitda yashayotgan odam qashshoq hisoblanadi. Bu borada ham Xalqaro hamjamiyatning standarti bor. Ushbu sohani, xususan, qashshoqlik o‘lchamini o‘rganuvchi institutlar mavjud. Bundan tashqari qashshoqlik standarti ham vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqiladi. Masalan, 2008-yilgacha qashshoq, deb kuniga bir AQSH dollari bilan kun ko‘rishga majbur odamlarni aytishardi. 2008-2015 yillarda bu chegara kuniga 1,25 AQSH dollari, qilib belgilandi.

Hozir esa o‘ta qashshoq deganda kuniga 1.90 dollardan kam daromad bilan yashayotgan odamlar tushuniladi.

Afsuski, dunyo bo‘yicha qashshoqlikda yashayotgan odamlar oz emas. Masalan, 2021-yil dunyo bo‘ylab 711 million kishi o‘ta qashshoq yashagan. Demak, bashariyat ushbu muammoni hali hal qilgan

yo‘q. 1.3 milliard odam esa u yoki bu darajada qashshoq yashashda davom etmoqda. Ularning, deyarli, yarmi bolalar va yoshlar ekani juda tashvishli. Xatto, eng boy mamlakatlarda ham 30 milliondan ortiq bola qashshoqlik chegarasida yashaydi.

BMTning “Oziq-ovqat xavfsizligi va oziqlanish holati” (2022) hisobotida 2021-yil dunyoda ochlikdan aziyat chekayotganlar soni 828 million kishiga yetgani ta’kidlandi. Bu 2020-yilga nisbatan, qariyb, 46 million kishiga, pandemiya boshlangunga qadar 150 million kishiga ko‘payganini bildiradi.

Jahon oziq-ovqat dasturi ma’lumotiga ko‘ra, 45 mamlakatda 50 million kishi ochlik xavfi ostida yashamoqda.

BMT 2021 yilgi Jahon suv hisobotida qayd etishicha, hozir dunyoda 2.2 milliard odam toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega emas, 3.6 milliard kishi xavfsiz sanitariya sharoitidan bebahra. Yana bir muammo ko‘pgina mamlakatlar aholini ijtimoiy ximoyalash tizimida ko‘zga tashlanmoqda. BMT ma’lumotiga ko‘ra, hozir aholining, qariyb, 55 foizi ijtimoiy himoyadan foydalana olmaydi.

Janubiy Osiyo va Afrikadagi Sahroi Kabir mintaqasi aholisining katta qismi butun dunyodagi o‘ta qashshoq kun kechirayotgan odamlar umumiy soniga nisbatan 70 foizni tashkil qiladi. Yana bir fakt: Hindiston, Indoneziya, Xitoy va Nigeriyani o‘z ichiga olgan o‘rtacha daromad darajasi past bo‘lgan mamlakatlar aholisi esa qashshoqlik chegarasidan past bo‘lganlar umumiy sonining yarmigp teng. Ayni payt dunyodagi eng qashshoq mamlakatlardan biri Burundi hisoblanadi. Mamlakat aholisining 70 foizidan ziyodi shu iskanjadan chiqib keta olmayapti. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning 52 foizi to‘yib ovqatlanmaslik darajasi yuqoriligi sabab past bo‘yli bo‘lib qolmoqda.

Jahon bankining 2022-yilda e‘lon qilingan prognoziga ko‘ra, 2030-yilga borib 600 million odam kuniga 2.15 dollardan kam pulga yashashga majbur bo‘ladi. 2020-yil oxiriga kelib ushbu ko‘rsatkich 719 million kishini tashkil etgan edi. Shu yil so‘nggi o‘n yillikdagi global tengsizlik eng kuchaygan davr sifatida tarixda qoldi.

**O‘zbekiston aholisining qancha qismi kambag‘al?** Respublikada kambag‘al aholi qatlami mavjud bo‘lsa-da, uzoq vaqt bu mavzu tilga olinmay kelgani sir emas. Bundan ikki yil ilgari ham faqat kam ta'minlanganlar haqida gapirilardi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil fevraldagi parlamentga murojaatida ilk bor O‘zbekiston aholisining kambag‘al qatlami haqida so‘zladi. Respublika aholisining 12-15 foizi kambag‘al ekani, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini ta’kidladi.

Pandemiya va uning salbiy oqibatlari mamlakatda kambag‘allik darajasi yanada ortishiga olib keldi. Ayni paytda bu bo‘yicha yangi hisob-kitoblar ma’lum qilinganicha yo‘q.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari – iqtisodiyot bo‘yicha falsafa doktori **Nurbek Yo‘ldoshev** bu mavzuga oid maqolasida aholi kambag‘allashuviga ta’sir qilgan quyidagi omillarni yozadi:

- asosan qishloq joylarda aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi va natijada mehnat bozorida raqobatga dosh berolmasligi;
- ta'lim tizimidagi salbiy natijalar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi;
- aholining ba'zi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlarda ortiqcha sarf-harajatlarning mavjudligi;
- ayrim hududlarda ishsizlikning yuqori darajada ekanligi, yangi ish o'rinlari tashkil etilishining faqat qog'ozdagina mavjudligi daromad kamligi va yashash darajasining pasayishiga olib kelgan.

Agar mazkur ko'rsatkichlarning aksi yuz bersa, ya'ni ishlab chiqarish rivojlansa, bilim va malaka, bandlikni ta'minlash, mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari oshsa, o'z-o'zidan moddiy o'sish ham yuqorilashi kuzatiladi.

Jahon bankiga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoqda.

Hisob-kitoblar natijasida kambag'al deya ta'riflanayotgan aholining kunlik daromadi 10-13 ming so'mni tashkil etishi ma'lum bo'lgan. Biroq ayni paytgacha aholining minimal iste'mol harajatlari qanchaligi e'lon qilinmayapti. Dunyo miqyosida esa aholi turmush darajasi minimumi muhim ahamiyatga egaligi ma'lum va bu doimiy e'tibordagi ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

**Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nimalar qilinmoqda?** O'ylab qaralsa, respublikada kambag'allik darajasi rasman e'tirof etilib, unga qarshi kurashish choralari ko'rilyotgan bir paytda pandemiya boshlandi. 2020-yil martida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. Mutaxassislar fikricha, mazkur vazirlikning tuzilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga, kambag'al aholi moddiy ta'minotida ham amaliy ko'mak berishga bo'lgan muhim qadamdir.

Koronavirus pandemiyasi dunyo davlatlari qatori O'zbekiston aholisi uchun ham katta yo'qotishlar olib keldi. Yashash uchun eng muhim resurs moddiy ta'minlanganlik darajasi tushib ketdi. Ishsizlar, bemorlar, moddiy yordamga muhtojlar safi karrasiga ortdi. Odamlar g'oyat og'ir vaziyatda qolishdi.

Mazkur holatda O'zbekiston hukumati ehtiyoji o'ta yuqori fuqarolarni aniqlab, ularni moddiy qo'llab-quvvatlovchi dastur – «temir daftar» tizimini joriy etdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, respublika miqyosida mazkur ro'yxatga kirgan 594,3 ming oila va ularning 2,5 million nafar a'zosi (shundan 648 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a'zolari) kiritilib, joriy yil 1-mart holatiga 641,3 ming nafarining (99 foiz) bandligi ta'minlandi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hozirgi kunga qadar «temir daftar»ga kiritilgan 600 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga jami 1,37 trillion so'mlik to'g'ridan to'g'ri moddiy va nomoddiy yordamlar ko'rsatilganini ochiqldi.

Qayd etilishicha, kam ta'minlangan oilalarning daromad manbaini yaratish orqali respublika bo'yicha 2021-yil 1-mart holatiga 515,9 ming oila va ularning 2,2 million nafar a'zolari «temir daftar» ro'yxatidan chiqarilgan.

Shu bilan birga, o'tgan yilda ijtimoiy ko'makka muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam ajratish qamrovi ham oshirilgan. Jumladan, bola parvarishi uchun nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni o'tgan yil yakunida yil boshiga nisbatan ikki baravarga, ya'ni 600 ming nafardan 1,2 million nafargacha ortgan.

Shuningdek, o'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan birga «2021-2030 yillarga qadar O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi» loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

Kambag'allar soni 5 million nafar atrofida deya aytilayotgan bir davrda bu kabi harakatlar qamrovini kengaytirish va jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

**Istiqbolda kambag'allik qanday qisqartiriladi?** Shundoq ham tashqi qarzarlar va budget defitsiti ortib borayotgan bugungi davrda kambag'al va qoloq aholi sonining ortib borishi mamlakatni parokanda qilish ehtimoli katta. Shu sabab hukumat darajasida har bir fuqaroga ayniqsa, moddiy yordamga juda muhtojlarga, albatta, maksimal darajada ko'mak berish ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ularni ish bilan ta'minlash yoki tadbirkorlikka o'rgatish kabi tashabbuslar shular jumlasidan. Ammo iqtisod o'smasa, ish haqi ham, aholi turmush darajasi ham pasayib boraveradi.

Vazirlikka ko'ra, ishsiz a'zolari bor bo'lgan hamda «temir daftar», «ayollar daftari» va «yoshlar daftari»ga kiritilgan oilalarga dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun 2021-yil 1-iyuldan boshlab:

- dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan 10 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilishi;
- ajratilgan yer maydonlari sug'orish tizimi (artezian quduqlar, tomchilatib sug'orish va boshqalar) hamda elektr energiyasi bilan ta'minlanishi;
- berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug'-ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratilishi belgilangan.

Moddiy yordamga muhtojlar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun kerakli mehnat qurollari xaridiga subsidiyalar ajratilishi, ishsizlar bandligini ta'minlash, turli grant, nafaqa va boshqa to'lovlardan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsad qilingan.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2021-yilda 70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 turdagi kasb-hunarga o'qitish, 39,6 ming nafar ishsizlarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish, 50 ming kishini tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillariga o'qitish reja qilingan.

Bundan tashqari, ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lami ham kengaytirilmoqda.

Bu say-harakatlar o'zini qay darajada oqlashi va kelgusida kambag'allikni qisqartirish borasida qanday natijalarga erishilishini vaqt ko'rsatadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон.
3. Жаҳон фалсафаси қомуси. Қ.Назаров. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” Тошкент-2016 йил.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008
5. Аристотель. Политика. -М.: Мысль. 2006.
6. Бехтерева Н.П. Мозг. –М.: Прогресс. 2015.
7. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq” ziyouz.com kutubxonasidan.